

BO'LAJAK O'QITUVCHILARNING RAQAMLI MUHITIGA MOSLASHUVI VA REFLEKTIV TAJRIBANING AHAMIYATI

Murodov Texron Furqat o'g'li

*Samarqand shahar 3-son Bolalar musiqa va san'at maktabi o'quv-ma'rifiy ishlar
bo'yicha direktor o'rinbosari*

Annotatsiya: Maqolada bo'lajak o'qituvchilarning raqamli muhitga moslashuvi jarayonida yuzaga keladigan muammolar, ularni hal etish yo'llari, shuningdek reflektiv tajribaning kasbiy shakllanishdagi o'rni tahlil qilinadi. Raqamli transformatsiya davrida pedagog shaxsining o'zini o'zi rivojlantirishi, raqamli kompetensiyalarni egallashi, raqamli didaktika asoslarini o'zlashtirishi zarurati ta'kidlanadi. Shuningdek, maqolada ta'lim jarayonida raqamli moslashuv va refleksiya o'rtasidagi uzviy bog'liqlik misollar orqali yoritiladi.

Kalit so'zlar: raqamli muhit, refleksiya, o'qituvchi tayyorlash, innovatsion ta'lim, raqamli kompetensiya, pedagogik transformatsiya.

ADAPTATION OF FUTURE TEACHERS TO THE DIGITAL ENVIRONMENT AND THE IMPORTANCE OF REFLECTIVE EXPERIENCE

Murodov Tehron Furqat ugli

*Deputy Director for Educational Affairs, Samarkand City Children's Music and Art
School No. 3*

Abstract: This article analyzes the challenges and solutions of future teachers' adaptation to the digital environment, emphasizing the importance of reflective practice in professional formation. In the era of digital transformation, teachers must continuously develop their digital competence and integrate digital didactics into their pedagogical activities. The article also highlights the interconnection between digital adaptation and reflection in the educational process, supported by practical examples.

Keywords: digital environment, reflection, teacher education, innovative teaching, digital competence, pedagogical transformation.

АДАПТАЦИЯ БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ К ЦИФРОВОЙ СРЕДЕ И ЗНАЧЕНИЕ ОПЫТА РЕФЛЕКСИИ

Муродов Техрон Фуркат угли

*Заместитель директора по воспитательной работе Самаркандской городской
детской музыкально-художественной школы № 3*

Аннотация: В статье рассматриваются проблемы адаптации будущих учителей к цифровой среде и пути их решения, а также значение рефлексивного опыта в профессиональном становлении педагога. Подчёркивается необходимость развития цифровых компетенций и внедрения цифровой дидактики в условиях трансформации образования. Также показана взаимосвязь между цифровой адаптацией и рефлексией на основе практических примеров.

Ключевые слова: цифровая среда, рефлексия, подготовка учителей, инновационное обучение, цифровая компетенция, педагогическая трансформация.

Kirish. Biz yashayotgan XXI asrda raqamli texnologiyalar ta'lim tizimini tubdan o'zgartirmoqda. O'qituvchi endi faqat bilim manbai emas, balki raqamli vositalarni pedagogik jarayonga samarali kirituvchi yo'l boshchiga aylanmoqda. Men o'zim ta'lim jarayonida raqamli muhitda faol ishlashni o'rganganim sayin, o'qituvchilik kasbi nafaqat bilim berish, balki o'z ustimda doimiy ishlashni ham talab etishini chuqur his qilaman.

Raqamli ta'lim, zamonaviy pedagogik jarayonning ajralmas qismiga aylanishi bilan, o'qituvchilar va o'quvchilarni yangi davr talablari asosida rivojlantirishni ta'minlamoqda. Erta yoshdagi va boshlang'ich ta'limda raqamli ta'lim vositalarining o'rnini misli ko'rilmagan darajada ortdi. Hozirda pedagoglar uchun raqamli texnologiyalar faqat ma'lumotlarni taqdim etish vositasi emas, balki o'quv jarayonining har bir bosqichida yangi pedagogik imkoniyatlarni yaratish imkoniyatidir.

Erta yoshdagi va boshlang'ich ta'limda o'qituvchilar uchun kreativlikni rivojlantirishda raqamli vositalar va o'yinlar muhim o'rin egallaydi. Yangi pedagogik yondashuvni taqdim etish orqali, o'quvchilarning kreativ fikrlash qobiliyatini shakllantirishda raqamli o'yinlarning ahamiyati ortmoqda. "Raqamli o'yin asosida kreativlikni rivojlantirish metodikasi" yangi bir yondashuv sifatida taqdim etiladi, bunda o'quvchilarga o'z maqsadlariga erishish uchun interaktiv raqamli o'yinlar yordamida fikr yuritish, muammolarni hal etish va kreativ yechimlar topish imkoniyati beriladi.

1. Interaktiv o'yinlar orqali kreativlikni rivojlantirish: Raqamli o'yinlar yordamida o'quvchilar o'z bilimlarini mustahkamlash, yangi ma'lumotlarni o'rganish, shuningdek, maqsadga yo'naltirilgan va kreativ fikrlashni rivojlantirishga imkon yaratadi. Bu o'yinlar

o'quvchilarning ijtimoiy hamkorlik, muammo yechish va tasavvur qilish qobiliyatlarini oshiradi.

2. Pedagogik o'yinlarni o'qituvchining metodik vositasi sifatida ishlatish: O'qituvchilar raqamli ta'lim vositalaridan foydalanib, o'quvchilarni biror topshiriqni hal qilishda o'zaro raqobatlashish va jamoaviy ish olib borish imkoniyatini yaratadilar. Shu bilan birga, pedagoglar o'yinlarni rivojlanishning turli bosqichlarida (boshlang'ich, o'rta va yuqori) moslashtirib, ularning kreativlikka ta'sirini kuchaytiradilar.

3. Kreativ o'yinlar va muammoli vazifalarni birlashtirish: Raqamli o'yinlar o'quvchilarga real hayotdagi muammolarni hal qilishda yordam beradi, bunda ular o'zlarining mantiqiy va ijodiy fikrlashlarini rivojlantiradilar. Shuningdek, o'qituvchilar o'yinlarda muammoli vazifalar yaratib, o'quvchilarni fikr yuritishga undashadi va ijodiy yechimlar izlashga jalb qiladilar.

Jadval 1. Raqamli muhitga moslashuv jarayonining asosiy bosqichlari va ularning refleksiya bilan bog'liqligi

Bosqich nomi	Tavsifi	Refleksiya bilan aloqasi
Axborot qabul qilish	Raqamli texnologiyalarni o'rganish va ularning imkoniyatlarini tushunish	O'qituvchi o'z bilim darajasini tahlil qiladi, zaif tomonlarini aniqlaydi
Integratsiya	Raqamli vositalarni dars jarayoniga tatbiq etish	Tajriba natijalarini baholash, samarali usullarni tanlash
Ijodiy qo'llash	O'z metodikasini raqamli muhit asosida yangilash	Shaxsiy yondashuvni shakllantirish, innovatsion g'oyalarni sinovdan o'tkazish
Barqarorlashtirish	Raqamli kompetensiyalarni kundalik faoliyatga singdirish	O'z-o'zini rivojlantirishni doimiy jarayonga aylantirish

Asosiy qism. Bugungi ta'limda biz ko'rayapmizki, o'quvchi va o'qituvchi o'rtasidagi muloqot endi faqat sinf xonasida emas, balki virtual platformalarda ham davom etmoqda. Men, bo'lajak o'qituvchi sifatida, Google Meet, Zoom, LearningApps kabi vositalardan foydalanganimda, nafaqat texnologiyani, balki o'quvchilarning raqamli tafakkurini ham boshqarishni o'rganaman. Bu jarayonda eng muhim narsa – o'zgarishlarga ochiq bo'lish.

Bo'lajak pedagoglarning raqamli kompetensiyalarini rivojlantirish: Ushbu metodika bo'lajak boshlang'ich ta'lim o'qituvchilarining raqamli ta'lim vositalarini qo'llashdagi kompetensiyalarini mustahkamlashga yordam beradi. O'qituvchilar o'zlarining kreativlik va pedagogik mahoratlarini raqamli o'yinlar orqali rivojlantiradilar.

O'quvchilarning kreativ fikrlashini oshirish: Bu metodika o'quvchilarning o'zlashtirish darajasini oshiradi, ularni o'qish jarayoniga yanada faol jalb qiladi va ularning ijodiy yondashuvini qo'llab-quvvatlaydi.

Yangilikning o'ziga xosligi. Raqamli platformalarda kreativ fikrlash: Raqamli o'yinlar nafaqat o'quvchilarga yangi bilimlarni olishga yordam beradi, balki ularning kreativ yondashuvlarini rivojlantiradi. O'quvchilarga o'zaro fikr almashish, kreativ g'oyalarni ishlab chiqish va yangi yondashuvlarni qo'llash imkoniyati yaratish.

O'qituvchilarning o'z kompetensiyalarini rivojlantirish: O'qituvchilar raqamli ta'lim vositalarini o'z metodik yondashuvlarida qo'llash orqali o'z pedagogik malakalarini oshiradilar. Bu nafaqat o'quvchilarga, balki o'qituvchilarga ham yangi pedagogik yondashuvlar va metodlarni joriy etishga imkon beradi.

Kutilayotgan natijalar. Ushbu metodika, raqamli o'yinlar yordamida bo'lajak boshlang'ich ta'lim o'qituvchilarining kreativligini rivojlantirishni ta'minlaydi. O'quvchilar ijodiy fikrlashga o'rganib, nafaqat o'z bilimlarini kengaytiradilar, balki innovatsion fikrlashni qo'llab-quvvatlaydilar. Bu metodika o'qituvchilarga pedagogik malakalarni oshirish, zamonaviy raqamli texnologiyalarni o'zlashtirish va o'quvchilarga kreativ ta'limni taqdim etish imkoniyatini beradi.

Raqamli kompetensiya – zamonaviy pedagogning poydevori

Raqamli kompetensiya o'qituvchining kasbiy mustaqilligini belgilovchi omillardan biridir. Bu — faqat texnik bilim emas, balki axborotni tahlil qilish, tanlash, raqamli xavfsizlikni saqlash, raqamli etikani tushunish va raqamli madaniyatni shakllantirish qobiliyatidir. Men o'qituvchilik amaliyotim davomida shuni his qildimki, raqamli vositalar darsni qiziqarli qilishi mumkin, lekin ularni to'g'ri maqsadda qo'llash uchun refleksiya zarur.

Har bir dars, har bir loyiha men uchun yangi tajriba. Darsdan so'ng o'zinga "Men bu mashg'ulotda nimani o'rgandim?", "Qayerda xato qildim?", "Qanday usul yaxshiroq ishladi?" degan savollarni beraman. Bu — refleksiya. Shunday jarayonlar orqali men o'zimni yaxshiroq tushunaman, kuchli va zaif tomonlarimni aniqlayman.

Raqamli muhit refleksiyani yanada qulaylashtiradi: videodarslar, onlayn portfoliolar, raqamli kundaliklar orqali biz o'z o'sishimizni real kuzatish imkoniga egamiz.

Raqamli vositalar refleksiyani faollashtiruvchi samarali mexanizmdir. Masalan, Padlet, Mentimeter yoki Google Forms yordamida men o'quvchilardan fikr-mulohazalarni yig'aman, bu esa menga o'z darsimni ob'yektiv baholash imkonini beradi. Shuningdek, e-portfolio yaratish o'qituvchining kasbiy yo'lini qayd etish va yutuqlarini hujjatlashtirish imkonini beradi.

Oliy ta'limda raqamli moslashuvni qo'llab-quvvatlash yo'llari

Universitetlar darajasida raqamli muhitga moslashuvni kuchaytirish uchun:

- raqamli pedagogika va axborot madaniyatiga oid fanlarni kengaytirish;

- raqamli laboratoriyalar tashkil etish;
- talabalarda raqamli refleksiya madaniyatini shakllantiruvchi amaliy mashg'ulotlar joriy etish zarur.

Menimcha, bo'lajak o'qituvchini zamon talablari asosida tayyorlash uchun, texnologiyani faqat vosita emas, balki ta'limning yangi falsafasi sifatida ko'rish kerak.

Xulosa. Bizning fikrimizcha, raqamli muhitga moslashuv va reflektiv tajriba, o'qituvchilik kasbining ajralmas ikki qanotidir. Raqamli kompetensiyaga ega, o'z faoliyatini tahlil qila oladigan o'qituvchi kelajak ta'limining haqiqiy yetakchisiga aylanadi. Bizning vazifamiz raqamli dunyoda insoniy qadriyatlarni yo'qotmagan holda, texnologiyadan samarali foydalanish madaniyatini shakllantirishdir.

Bo'lajak boshlang'ich ta'lim o'qituvchilari uchun raqamli o'yinlar metodikasini joriy etish, o'z-o'zini baholash tizimlari va kreativ fikrlashni rag'batlantiruvchi pedagogik vositalardan foydalanish, ta'lim tizimining samaradorligini oshirishga va o'quvchilarning rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Bu metodika o'qituvchilarga yangi pedagogik yondashuvlarni o'zlashtirish va zamonaviy ta'lim texnologiyalarini ta'lim jarayoniga muvaffaqiyatli integratsiya qilish imkoniyatini yaratadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. To'xtasinov X. T. Bola psixologiyasi. – Toshkent: O'zMU nashriyoti, 2018. – 156 b.
2. Raxmonqulova S. Sh. Raqamli pedagogika: metodik yondashuvlar. – Toshkent: "O'qituvchi", 2022. – 145 b.
3. Tuychieva, O. N. (2020). ON THE PROBLEM OF TRAINING COMPETITIVE PERSONNEL FOR THE DIGITAL ECONOMY & Theoretical & Applied Science, 701-707
2. Rahmonova, S. (2023). YANGI O'ZBEKISTONDA MA'NAVIY-MADANIY ISLOHOTLAR. Current approaches and new research in modern sciences, 2(10), 40-43.